



## SARAHBORI DUGOH

**Jo'rayeva Dilafruz Iminjon Qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*ijtimoi gumanitar fanlar va san'at fakulteti (Tasviri san'at va musiqa ta'limi)*

*kafedra 1-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola O'zbek milliy merosi bo'lgan "Shashmaqom" va uning vujudga kelishi, ilk bor qanday nomlanganligi, qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligi haqida yozilgan. O'zbekistonda Shashmaqom shakllanishida, rivojlanishida, o'z o'rnini topishida kimlar o'z hissasini qo'shganligini haqida bayon etadi.*

**Kalit so'z:** *Shashmaqom, mushkulot, nasr, sarahbor, hofiz, miyonhat, dunasr, avj.*

**Аннотация:** *В данной статье рассказывается об узбекском национальном наследии «Шахмаком», то есть о его создании, о том, как оно было впервые названо и из каких компонентов состоит. Описывается, кто способствовал становлению, развитию и становлению Шахмакома в Узбекистане.*

**Ключевое слово:** *Шахмаком, мушкулот, наср, сарахбор, хафиз, миёнхат, дунаср, авдж.*

**Annotation:** *This article tells about the Uzbek national heritage "Shashmaqom", that is, about its creation, how it was first named and what components it consists of. It describes who contributed to the formation, development and establishment of Shashmaqom in Uzbekistan.*

**Key word:** *Shashmaqom, mushkulot, nasr, sarahbor, hafiz, miyonhat, dunasr, avj.*

### Kirish

O'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi uzun asrlar davomida kelayotgan kuy-ohanglarida o'zining ajoyib va betakror badiiy hususiyatini topgan. Ulug' ajdodlarimiz



e'tirof etgan ta'rifga ko'ra, musiqa – inson ruhining ozuqasidir. Uzoq asrlar davomida xalqimiz boy ma'naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining sadolardagi jonli ifodasi bo'lgan milliy musiqa bugungi kunda buyuk davlat bunyodkori bo'lgan jamiyatimizning ruhi, quvvati bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, ko'p sohalar singari musiqa madaniyatida ham juda katta o'zgarishlar sodir bola boshladi. Ayniqsa, oxirgi yillarda mustaqil O'zbekistonimzda asriy maqom san'atiga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada ortganligi quvonarli xolatdir. Bu soxada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 17-noyabr kuni e'lon qilingan “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagicha: “...mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom san'atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlarini yurtimiz olimlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur o'rganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish”.<sup>1</sup> ko'zda tutilgan. Ushbu maqola yuqoridagi qarorning tegishli qismiga hizmat qiladi.

“Maqom atamasi arabcha ibora bo'lib, ( o'rin, joy, tovush, parda , daraja ) o'tmishda turli ma'noda ishlatilib kelingan. “Musiqada esa maqom - musiqa cholg'ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o'rni, ya'ni pardalardir... ”O'zbek – tojik xalqlari mumtoz musiqasi - Shashmaqom XVIII asr o'rtalarida Buxoroda saroy mohir musiqachilari va musiqa ilmi bilimdonlari tomonidan olti maqomdan iborat zalvorli turkum tarzida ifoda etilgan. Mazkur maqomlar quyidagicha nomlanadi:

1. “Buzruk” ma'nosi - “katta”, “ulug’“, “buyuk”.
2. “Rost” ma'nosi - “to'g'ri”, “chin”, “haqiqiy”.
3. “Navo” ma'nosi - “kuy”, “mungli kuy”, “ishq kuyi”.
4. “Dugoh” - “ikki o'rin”, “ikki joy”, “ikki parda”.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 17.11.2017 yildagi PQ-3391-son Lex.uz.



5. “Segoh” - “uch o‘rin”, “uch joy”, “uch parda”.
6. “Iroq” - ma’lum arab mamlakatining nomiga nisbat berilgan.

Shashmaqom deganda, eng avvalo, tovush – pardalarning olti xil ko‘rinishdagi mukammal uyushmasi tushuniladi. Bu parda uyushmalarining har biri tarkibida ohangdosh (muloyim) bo‘dlarning umumiy ko‘rsatkichi (9) ulardagi asosiy tovush-nag‘malar soni (8)dan ortiq bolgan bu pardalar ijod jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi”<sup>2</sup>.

Har bir maqom ikki bo‘lim cholg‘u va ashula bo‘limidan iborat bo‘lib hozirgi kunda “Mushkulot” va “Nasr” atamalari bilan qo‘llanildi. Xorazmda esa “Mansur” yoki “Chertm yoli” va “Manzum” yoki “Aytim yo‘li” deb aytiladi”<sup>3</sup>. Manbalarda yozilishicha maqomning cholg‘u kuylar bo‘limi Buxoro an‘anasiga ko‘ra “Mushkilot” deb aytiladi. “Mushkulot” atamasi “qiyinchilik”, “murakkablik” ma‘nosini anglatib, maqomlardagi kuy-mavzuyini murakkabligi har xil bo‘lgan doira usullari sinovidan o‘tishini va shu jumladan alohida qism va turkum sifatida rivoj topishini ham anglatadi. Mushkulot bo‘limi quyidagi 5 ta qismdan iborat:

1. “Tasnif” – tasnif etilgan, ijod etildan, mukammal asar.
2. “Tarje” – qaytariq, takrorlash, takrorlanuvchi.
3. “Gardun” – falak gardishi, qismat.
4. “Muxammas” – beshlik, beshlangan.
5. “Saqil” – vazmin, og‘ir.

“Nasr” atamasi – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib “ko‘mak”, “zafar”, “g‘alaba” degan ma‘nolarni anglatadi.

Albatta har bir maqomning aytim yo‘li “Saraxbor” bilan boshlanadi va shu tarzda kuy – ohangi, tayanch pardalari, namud – avjlari, shakli qolgan ashula qismlari uchun muhim vazifani bajaradi. “Saraxbor” sar bo‘g‘ini – forschadan tarjima qilingan bo‘lib –

<sup>2</sup> O.Ibrohimov “Maqom asoslari” Toshkent “Turon Iqbol” -2018. 35-bet.

<sup>3</sup> Y. Rajabiy Toshkent”Badiiy adabiyot” nashriyoti 1996. 7-bet.



bosh degan ma'noni, axbor so'zi – xabarlar, bosh mavzu bosh xabarlar kabi ma'nonolarni anglatadi. Saraxbor ketidan taronalar ijro etilib suporish bilan Talqin sho'basiga o'tiladi. Saraxbor qaysi maqomga mansub bo'lsa, shu maqomning nomi bilan qo'shib yoziladi, "Saraxbori Buzruk", "Saraxbori Rost", "Saraxbori Navo", "Saraxbori Dugoh", "Saraxbori Segoh", "Saraxbori Iroq" kabilar shular jumlasidandr.

Saraxborlar yetuk ishq, pand-nasihat mavzularida mumtoz she'riyatda o'z o'rniga ega bo'lgan Rudakiy, Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Munis g'azal va sherlari namunalari bilan aytiladi. Ularning ichki shakliy tuzilishi quyidagilardan iborat:

-birinchi bo'lib kirish qismi bo'lgan cholg'u kuyi yangraydi;

-**hofiz** ashula aytishni boshlagan vaqtdan daromad qismi boshlanadi. Aksariyat daromad she'riy bayt (ikki misra), ba'zida ikki bayt (to'rt misra) asosida "aytiladi". Va yana unda unli harflar "o", "a" va so'z qoshimchasi hang ya'ni "yorey", "voyey", "jonimey" va shu kabi so'zlar bilan aytiladi;

-**miyonxat** – ashula yoki kuyning o'rta pardalarida dastlabki tayanch pardadan kvarta, ba'zan kvinta yuqorilab davom ettirilishini, rivojlantirilishini bildiradi;

-**dunasr** – dastlabki daromad kuyini yuqori pardalarda aksariyat, bir oktava yuqorilab kuylashda davom etish;

-**avj** – maqom ashulaning eng yuqori pardalarda aytiladigan muhim cho'qqi qismi"<sup>4</sup>.

Dugoh Shashmaqom tarkibiga kiruvchi to'rtinchi maqom sanaladi. Dugoh so'zining ma'nosi ikki o'rin va ikki joy degan ma'noni anglatadi. Musiqa manbalarida Dugohning butun ton oralig'idagi ikki pog'onali tovushlar yig'indisi deb yozilishi musiqa asarlarining diapazonini ko'rsatmaydi, aksincha ular boshlanishidagi ikki pardani ifodalaydi. Dugoh maqomini Dugoh Husayni bilan asosiy farqi shundaki, Dugoh maqomi Shashmaqom tarkibiga kiradi. Dugoh Husayni Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga kiradi.

---

<sup>4</sup> Shu adabiyot. 58-bet.



O'zbekistonda an'anaviy xonandalik san'atiga Otajalil Nosirov, Komiljon Otaniyozov, Yunus Rajabiy, Fattoxon Mamadaliyev, Rasulqori Mamadaliyev, Ustahalim Ibodov kabi yetuk sozanda va xonandalar ulkan hissalarini qo'shgan.

### **Xulosa.**

Xulosa qilob wuni takidlash lozimki milliy merosimiz bo'lgan Shashmaqomni tarkibidagi turli hil ijro namunalari o'rganish jarayonida o'quvchi va talabalar yetuk Shoirlar, sozandalik va honandalik bilan umr kechirgan sanat namoyondalari hayoti va ijodini ham beihiyor o'zlashtiradilar. Bu davrda milliy ijrocilik yo'llari qanchalik go'zal, yoqimli, nafosatli va tarbiya jihatdan alohida ahamiyat kasb etishini anglaydilar

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 17.11.2017 yildagi PQ-3391-son Lex.uz.

O.Ibrohimov "Maqom asoslari" Toshkent "Turon Iqbol" -2018. 35-bet.

Y. Rajabiy Toshkent"Badiiy adabiyot" nashriyoti 1996. 7-bet.